

Tender savdolarida qatnashish uchun e'lon

Tenderda qatnashish uchun taklif

O'zbekiston Respublikasi

Mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini rivojlantirish loyihasi

Qarz bitimi: ?: 5679-UZB

Shartnomalar nomi: Toshkent viloyatida mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash-2

Shartnomalar ?: RRDP/CWP-5

Sana: 14 dekabr 2021 yil

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini rivojlantirish" loyihasi xarajatlarini qoplash uchun Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasidan (IDA) mablag' oldi va ayni paytda mablag'larning bir qismini Toshkent viloyatidagi mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlashga yo'naltirmoqchi.

O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi Toshkent viloyatidagi 26 ta mahalliy ahamiyatidagi avtomobil yo'llarini kapital ta'mirlash bo'yicha tanlov ishtirokchilarini muhurlangan tender takliflarini taqdim etishni taklif etadi. Qurilish ishlari 8 ta uchastkaga bo'lingan. Ishlar qatoriga yo'llarni kapital ta'mirlash va ular bilan bog'liq yordamchi ishlar, ko'priklarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish, shaharlarda elektr (yorug'lik) ishlari kiradi.

Tender tartib-qoidalari Juhon bankining XTTB ssudalari va kreditlari hamda Xalqaro hamkorlik tashkilotining grantlari uchun tovarlar, ishlar va konsalting bo'yigan xizmatlarni xarid qilish bo'yicha yo'riqnomasiga (2011-yil yanvar oyida qayta ko'rib chiqilgan va 2014-yil iyul oyida qayta ko'rib chiqilgan) muvofiq Xalqaro tanlov savdolari orqali o'tkaziladi. Xaridlar bo'yicha qo'llanmada ta'riflanganidek, barcha talabgorlar uchun ochiqdir. Bundan tashqari, Juhon bankining manfaatlar to'qnashuvi siyosatiga havola qilingan 1.6 va 1.7 bandlarini ko'rib chiqishingiz mumkin.

Manfaatdor tender ishtirokchilari qo'shimcha ma'lumot olishlari va tender hujjatlari bilan ish vaqtida davomida soat 09:00 dan 18:00 gacha quyidagi manzilda tanishishlari mumkin.

Manfaatdor tender ishtirokchilari quyidagi manzilga yozma so'rov yuborgandan so'ng, tender hujjatlarining to'liq to'plamini ingliz tilida sotib olishlari mumkin.

Takliflar 25.01.2022 yil soat 15:00 (Toshkent vaqt bilan) ga qadar quyidagi manzilga yuborilishi kerak. Takliflarni elektron shaklda yuborish qabul qilinishi mumkin emas. Belgilangan muddatdan kechroq taqdim etilgan takliflar rad etiladi. Tijorat takliflari 25.01.2021 yil soat 15:00 da (Toshkent vaqt bilan) ishtirokchilar vakillari ishtirokida quyidagi manzilda ommaviy ravishda ochiladi.

Barcha takliflar quyida ko'rsatilgan summalar bo'yicha "Bank kafolati" bilan birga bo'lishi kerak:

1-LOT: 100 000 (yuz ming) AQSh dollari;

2-LOT: 80 000 (sakson ming) AQSH dollari;

3-LOT: 170 000 (bir yuz yetmish ming) AQSh dollari;

4-LOT: 125 000 (bir yuz yigirma besh ming) AQSh dollari;

5-LOT: 225 000 (ikki yuz yigirma besh ming) AQSH dollari;

6-LOT: 110 000 (bir yuz o'n ming) AQSH dollari;

7-LOT: 165 000 (bir yuz oltmis besh ming) AQSh dollari;

8-LOT: 155 000 (bir yuz ellik besh ming) AQSh dollari.

Tender hujjatlarini sotib olish va tender bo'yicha bat afsil ma'lumot olish uchun manzil:

O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi huzuridagi Respublika yo'l jamg'armasi

Janob Zufar Ismatullaev

O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Mustaqillik shoh ko'chasi, 68a, 100000

Tel: +99871 2689708, +99871 2689041

Elektron pochta: rrdproject14@gmail.com
